O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

2. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). Maktabgacha yoshdagi bolada o ‘zini-o ‘zi anglashda oilaning roli. In E Conference Zone (pp. 11-16).
3. Norbekova, B. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo‘llari: maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo‘llari. Журнал дошкольного образования, 3(3).
4. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). Maktab o‘quvchilarining individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganishning ahamiyati. In E Conference Zone (pp. 1-5).
5. Arakulov, G. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat muhim psixik fenomen sifatida. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
6. Sunatullaevna, K. A. (2022). Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 518-521.
7. Ибайдуллаева, У. (2022). Роль семьи в предотвращении конфликтов между подростками. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 1(7), 81-83.
8. Каршибаев, С., & Анорбоев, Х. (2023). Talabalar o ‘quv faoliyatining turlari va xususiyatlari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 476-479.
9. Yuldashev, S., & Arakulov, G. (2023). ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN FAMILY DISPUTES. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue), 81-88.

DEVIANT XULQ-ATVORNING PSIXODINAMIK ASPEKTLARI

Yusupov Umidjon Salim o‘g‘li,
Hasanova Mohinur
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu tesizda deviant xulq-atvorning psixodinamik aspektlari haqida yoritilgan bo‘lib, psixoanaliz maktabida deviant xulq-atvorning o‘rganilishi va uning kelib chiqish sabablari keltrilgan.

Kalit so‘zlar: Z.Freyd, deviant, xulq-atvor, psixodinamik, instikt, agressiya, id, ego, super ego, avtoritet, ehtiyoj, biologik nazariyalar.

Z.Freyd psixoanalizidan kelib chiqqan psixodinamik nazariyalar inson xulq-atvorining ongsiz mexanizmlarini ochib beradi. Deviant xulq-atvorni psixoanalitik atamalar yordamida sharhlash, eng avvalo psixik hayotning modellari va asosiy

tushunchalari haqida ma’lumot berishni talab qiladi. Dastavval shaxs rivojlanishi haqida Freyd nazariyasi, biologik asoslangan va ichki ehtiyojlar instinkt jarayonlarini birlamchiligini ta’kidlagan. Z.Freyd ikkita asosiy instinkt turini farqlab ko‘rsatadi: hayot instinkti va o‘lim instinkti. Agressiv instinkt esa o‘lim instinktining asosiy namoyishi va mahsuli deb tan olingan, agressiyaga moyillik esa-barcha insonlarga xos, yakunlovchi instinktiv tendensiyadir.

Boshqa asosiy bosqich psixik aparat tuzilishini kiritish. Z.Freyd tomonidan tavsiya etilgan tuzilish modeli, uch tizim yoki uchta kuchdan iborat: Id, Ego va Super Ego. Shaxsning psixologik farovonligi ushbu uchta tuzilmaning samarali faoliyatiga bog‘liq. Id atamasini Freyd primitiv tilaklar, impulslar, irrasional intilishlar, “qo‘rqish-tilak” juftliklari va fantaziyalardan iborat bo‘lgan psixikaning katta qismlarini belgilash uchun qo‘llagan. Bu “xaos, jo‘sh urib turgan emotsiyalar bilan qaynab turgan qozon”. Id faoliyati qo‘zg‘alishning, rohatlanish prinsipiga muvofiq, erkin amalga oshirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Id o‘zini verbal tarzda ramzlar va obrazlarda aks etadi, unda vaqt, odob, chegaralanish yoki qarama-qarshiliklar birga mavjud bo‘lmasligi haqida tushuncha umuman yo‘q.

Z.Freyd bilish jarayonining primitiv darajasini, gallyutsinatsiyalar, tushlar va hazillar tilida mavjud bo‘lgan, fikrlashning ilk jarayoni deb atadi. Id nisbatan o‘zgarmas va to‘liq ongsiz shaklda bo‘ladi, ammo uning borligi va hukmi fikrlar, harakatlar va emotsiya derivatlaridan ajralib turadi.

Ego bu bir oila doirasida hayot talablariga moslashish, hal etish yo‘llarini topish, Id intilishlarini boshqarish uchun funksiyalar nomi. Ego butun hayot davomida rivojlanib boradi, ayniqsa tezkor bolalikning ilk davrlarida rivojlanadi. Ego reallik prinsipiga muvofiq faoliyat yuritadi va ikkinchi fikrlash jarayonining negizi hisoblanadi (mantiqiy, bosqichma-bosqich, yo‘naltirilgan). Shunday qilib, Ego Id talablari va muhit chegaralanishlari o‘rtasida vositachi deb hisoblanadi. Unda ongli va ongsiz aspektlari mavjud. Ongli Ego bu ko‘pchilik insonlar tushunchasidagi “Menlik”, ongsiz Ego esa o‘ziga muhofaza jarayonlarini qamrab olgan.

Id va Ego tushunchalaridan tashqari, ota-ona ta’sirining qoldiq aksi bo‘lmish psixik aparatining qolgan qismi uchun Super Ego tushunchasi kiritilgan. Z.Freyd fikricha, Super Egoning asosiy vazifasi Id talablarini Egoga ruhiy ta’sir o‘tkazish orqali bartaraf etish. Ushbu markazning asosiy funksiyalari: ideal, o‘zini kuzatish va vijdon. Ichki standartlar va ta’qiqlar negizida albatta ota-onaning ibrati turadi. Bola boshidan, muhabbatni yo‘qotish qo‘rquvi tufayli yoki tashqi, ota-ona avtoriteti tomonidan agressiya xavfi tufayli o‘zini chegaralashga kelib qoladi. Natijada esa, u Super Ego ichki avtoritet oldidagi qo‘rqish hissidan kelib chiqib, harakatlana boshlaydi. Vijdonga qarshi qilingan harakatlar, jazoga muhtojlik, gunohkorlik yoki bo‘shlik hislarini paydo bo‘lishiga olib keladi. Shaxsiy muammolarni, haddan tashqari qat’iy Super Ego ning namoyishi, uning to‘liq shakllanmaganligining natijasi bilan tenglashtirish mumkin. Masalan, suitsidal xulq-atvor sevimli kishisini yo‘qotishi natijasida depressiv holat fonida shakllanadi. Ba’zi bir insonlar ushbu vaziyatda normal g‘am-qayg‘u o‘rniga, “menlik” zaiflanishi va sog‘ligini keskin yomonlanishi bilan melanxoliyaning maxsus holati “depressiya”ni o‘z boshlaridan kechadilar. Muhabbat obyektining real o‘limi emas, balki insonning ichki dunyosidagi o‘lishi. Z.Freyd yozganidek, “obyekt muhabbat obyekti sifatida

yo‘qotildi. G‘am tufayli ichki dunyo zaiflashdi, melanxoliya tufayli esa - “menlik”. “Men” nomunosib, hech narsaga yaroqsiz, o‘ziga nisbatan hurmatini yo‘qotgan, chunki u Super Ego ning ayovsiz tanqidiga uchraydi. Bunday vaziyatda haqiqatdan, insonni o‘z shaxsiyatiga nisbatan tanbeh berish to‘g‘ri kelmaydi, ammo diqqat bilan kuzatilganda, yaxshi ko‘rgan shaxsiga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin. “Menlik”ni qoldirilgan obyekt bilan ham qiyoslash - identifikatsiya qilish ham o‘rinli. Obyekt yo‘qotilishi “menlik”ni yo‘qotishga, tanqid esa o‘zini tanqid qilishga aylanadi. Agar kechib bo‘lmaydigan muhabbat (o‘sha payt real obyektdan vos kechish bilan) o‘zining yechimni narsistik qiyoslashda topgan bo‘lsa, bu obyektga nisbatan nafrat bildiriladi. Aynan shu obyektga sadistik qoniqish darajasigacha azob beriladi.

Z.Freyd ta’kidlaganidek, “Faqatgina shu sadizm o‘z joniga qasd qilish moyilligi muammosining yechimini topib beradi”. Shaxs ulg‘ayishi, Z.Freyd tomonidan, psixoseksual rivojlanish bosqichlari sifatida o‘rganilgan. Bu bosqichlarning ketma-ket o‘tish jarayonida asosiy e’tibor tananing alohida qismlariga qaratilgan bo‘ladi - oral fazasidan boshlab, anal va fallik fazalar orqali genital (jinsiy organlar) fazasigacha. Drayvlar klassik nazariyasida (instinktlarning psixik namoyishi) ta’kidlaganidek: agar bola haddan tashqari frustratsiyaga chalingan bo‘lsa yoki psixoseksual rivojlanishining biror bir bosqichida me’yordan ortiq qoniqish hosil qilsa, u o‘sha bosqichda to‘xtab qoladi.

Z.Freydning so‘nggi asarlari - psixoanalizda “Egopsixologiya” kabi yo‘nalishning rivojlanishida turtki vazifasini bajardi. Ushbu yo‘nalish bugungi kunda “muhofaza” umumiy tushunchasi birlashtirgan jarayonlarni o‘rganadi. Rivojlanishning nizo fazasidan kelib chiqqan holda, biz insonni tushunushga harakat qilganimizdek, insonlarni ham ularga xos bo‘lgan xavotirni bartaraf etish usullariga muvofiq turlashimiz mumkin.

Alkogolizmga (narkotiklarga) berilish insonning xulq-atvorining boshqa misol sifatida keltirish mumkin. Bu holatda inson muammo borligini qat’iy rad etadi va “men vaziyatni nazorat qilyapman” degan xulosaga keladi. Bu yerda rad etish kabi muhofaza mexanizmi ishga solinadi. Ushbu reaksiya – arxaik jarayonning sadosidir, bu vaziyatda bilish jaryonini mantiqoldi ishonch boshqaradi: “Agar men buni tan olmasam, bu sodir bo‘lmagan”.

O‘z navbatida, sadizm, eksplozivlik (portlanuvchanlik), yaqin kishining o‘limi holatida, depressiya kabi holatlar, proeksiya va introeksiya namoyishlarning negizida yotishi mumkin. Xuddi shunday qo‘rquv holatida, insonlar negativ hissiyotlarni egallab olishga harakat qiladilar va azob berayotgan insonning xislatlarini o‘zlashtiradilar (proyektiv identifikatsiya).

Psixoanalitik tasavvurlarga muvofiq ichki nizolar dinamikasida, bola dunyosidagi asosiy obyekt bo‘lib kelayotgan ota-ona asosiy rol o‘ynaydilar. Psixoanalizdagi so‘nggi yo‘nalish - obyektiv munosabatlar nazariyasi namoyondalari ketma-ketlik bilan obyektiv munosabatlarda baxtsizlikning psixologik muammolar bilan aloqadorligi haqida g‘oyani rivojlantir-moqdalar. Bola ota-onasi bilan munosabatlari qanday kechadi, qanday hissiyotlar bola tomonidan o‘zlashtiriladi, shaxsning butun hayoti davomida uning xulq-atvoriga ta’sir qilib turgan, qanday ota-

onaning obrazlari uning ongsiz dunyosida mavjud - bularning hammasi katta ahmiyatga ega.

Buzilgan xulq-atvor holatida norasolik kompleksi noadekvat hayotiy yo‘riqmalar va rivojlanmagan ijtimoiy hissiyoti bilan birlashadi. Anomal shaxsda ustivor hayot yo‘nalishi bu ustivorlikka erishish intlishidir. Bu hissiyot shu darajada rivojlanganki, jamoa hissiyotining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga katta to‘sqinlik qiladi. Bunday inson odamlarni o‘zining shaxsiy manfaatlariga yetish vositasi sifatida qabul qiladi, jamiyatga dushman kuchi sifatida qaraydi, boshqalar bilan hamkorlik qilishni xohlamaydi va qilmaydi. Ushbu ziddiyat jamiyatning turli talablariga qarshi chiqish, gipertroflashgan reaksiyasida namoyon bo‘ladi: boshqalarni hurmat qilish, haqiqatni aytish, bilim olish va mehnat qilish, boshqalar haq ekanligini tan olish, minnatdor bo‘lmoq..... Ustivorlik g‘oyasi boshqalarni - bo‘ysindirish, kamsitish va diskreditatsiya harakatlariga undaydi. Natijada shaxsning xulq-atvorini va umuman hayot yo‘lini aniqlovchi, shaxsning mustahkam negativ qirralari shakllantiradi - sabrsizlik, hasad, manmanlik, shubha uyg‘otish va boshqalarni aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salim o‘g‘li, Y. U. (2022). PSIXOLOGIK AXBOROT XAVFSIZLIGI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 66-72.
2. Norbekova, B. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI. *Журнал дошкольного образования*, *3*(3).
3. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O‘QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI. In E Conference Zone (pp. 1-5).
4. Arakulov, G. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQAT MUHIM PSIXIK FENOMEN SIFATIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(1).
5. Sunatullaevna, K. A. (2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 518-521.
6. Ибайдуллаева, У. (2022). РОЛЬ СЕМЬИ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ КОНФЛИКТОВ МЕЖДУ ПОДРОСТКАМИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, *1*(7), 81-83.
7. Каршибаев, С., & Анорбоев, Х. (2023). Talabalar o ‘quv faoliyatining turlari va xususiyatlari. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(2), 476-479.
8. Yuldashev, S., & Arakulov, G. (2023). ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN FAMILY DISPUTES. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, (Special Issue), 81-88.